



NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHASINI ISHLAB CHIQUISH VA KELISHISHNING YAGONA ELEKTRON TIZIMI

ID-6919 (V-4)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori

Jazoni ijro etish muassasalarida kasb-hunarga tayyorlash hamda mahkumlar va aholi bandligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va mahkumlarni kasb-hunarga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

So'nggi yillarda jazoni ijro etish muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda mahkumlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni ijtimoiy-foydali faoliyat bilan shug'ullanishga jalb qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, jazoni ijro etish muassasalari faoliyatiga zamonaviy mexanizmlarni joriy etgan holda, kasb-hunarga tayyorlash samaradorligini oshirish zarurati mavjud.

1. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining jazoni ijro etish muassasalaridagi kasb-hunarga o'rgatish markazlarini qayta tiklash va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Quyidagilar:

jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan bandligi ta'minlanmagan va kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumlarni kasb-hunarga o'qitish tartibi to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq;

mahkumlarni kasb-hunarga tayyorlaydigan jazoni ijro etish muassasalari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo'yilsinki:

mahkumlarni kasb-hunarga o'qitish uchun kasbiy ko'nikmalar markazlarining ishlab chiqarish ta'lim ustalari fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida o'quv kursiga jalb etiladi;

mahkumlarni kasb-hunarga o'qitishda jazoni ijro etish muassasalariga biriktirilgan kasbiy ko'nikma markazlari buyurtmasiga asosan o'quv kursi guruhlarida tinglovchilar soni 20–30 nafargacha tashkil etiladi;

o'qishni muvaffaqiyatli tugatgan mahkumlarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi hamda jazo muddati yakuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashiladi;

ushbu qarorning 1-bandida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari mablag'lari, 3-bandidagi tadbirlar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda jazoni ijro etish muassasalarining holati hamda ulardagi shart-sharoitdan kelib chiqqan holda mahkumlar egallashi mumkin bo'lgan kasblar ro'yxatini shakllantirsin hamda kelgusida mehnat bozoridagi talabga asosan ro'yxatga tegishli o'zgartirishlar kiritib borsin;

kasbiy ko'nikmalar markazlariga biriktirilgan tegishli jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni kasb-hunarga o'qitish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishini hamda ularning zarur asbob-uskunalar va o'quv anjomlari bilan jihozlanishini ta'minlasin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri J.A. Qo'chqorov, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri A.A. Tashpulatov hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri B.E. Zaxidovlar zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri
A. Aripov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2025-yil _____dagi ____-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

Jazoni ijro etish muassasalarining buyurtmasi asosida jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan bandligi ta'minlanmagan va kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumlarni kasbga o'qitish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tasarrufidagi jazoni ijro etish muassasalarining buyurtmasi asosida jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan bandligi ta'minlanmagan va kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumlarni Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining kasbiy ko'nikmalar markazlari tomonidan mahkumlar egallashi mumkin bo'lgan kasblar ro'yxati doirasida kasbga o'qitishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkum – jinoyat sodir etgani uchun sud tomonidan aybdor deb topilib, ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo qo'llanilgan shaxs;

Kasb-hunarga o'qitish xonalari – jazoni ijro etish muassasalari tomonidan mahkumlarni kasb-hunarga o'qitish uchun zarur asbob-uskunalar va o'quv anjomlari bilan jihozlangan o'quv xonalari;

Buyurtma – jazoni ijro etish muassasalari tomonidan ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish imkoniyatlari, mahkumlarning qiziqishlari, mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida kasb-hunarga o'qitish bo'yicha beriladigan buyurtma;

Ishlab chiqarish ta'lim ustalari – Kasbiy ko'nikmalar markazlarining ma'lum kasb-hunar turlari bo'yicha pedagogi, o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lim ustalari;

3. Mahkumlar quyidagi hollarda kasb-hunarga o'qitiladi:

ozod etilishiga olti oy qolganda;

jazoni ijro etish muassasalaridagi ishlab chiqarish korxonalariga ishga jalb etish uchun mutaxassislik talab etilganda.

2-bob. Buyurtmani shakllantirish va taqdim etish tartibi

4. Jazoni ijro etish muassasalari jazo muddatini o'tayotgan kasb-hunarga ega bo'lmagan, muassasaning ishlab chiqarish faoliyatidagi mavjud ehtiyoj yoki

mahkumlarning murojaatiga asosan har chorakning oxirgi oyi
15 sanasiga qadar:

jazoni ijro etish muassasalari ishlab chiqarish korxonalaridan malaka talab etiladigan ishchilarga ehtiyojini o'rganadi;

jazoni ijro etish muassasalariga sudning hukmi bilan ozod etilishiga olti oy muddat qolgan kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumlar ro'yxatini shakllantiradi;

ishlab chiqilgan buyurtmani mahkumlarni kasb-hunarga o'qitib berish uchun biriktirilgan kasbiy ko'nikmalar markazlariga taqdim etadi.

Bunda, o'quv kursi guruhlardagi tinglovchilar soni 20 – 30 nafargacha shakllantirilishi inobatga olinadi.

5. Jazoni ijro etish muassasalari buyurtma asosida kasbiy ko'nikmalar markaziga kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumning tasdiqlovchi hujjatini (pasport ma'lumotlari) buyurtmaga ilova qilgan holda taqdim etadi.

6. Kasbiy ko'nikmalar markazlari jazoni ijro etish muassasalari tomonidan taqdim etilgan buyurtma asosida o'quv kursini tashkil etish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni belgilaydi:

o'quv kursiga tinglovchilarni qabul qilish bo'yicha buyruq chiqaradi;

o'quv kursi dasturlarini ishlab chiqadi;

o'quv kursiga jalb etiladigan tinglovchilarni o'qitish uchun kasbiy ko'nikmalar markazlarining o'qitish uchun jalb etiladigan ishlab chiqarish ta'lim ustalarini belgilaydi yoki mutaxassislarni shartnoma asosida jalb etish choralarini ko'radi.

O'qishni muvaffaqiyatli yakunlagan mahkumlarga begligangan tartibda sertifikat beradi.

3-bob. Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan bandligi ta'minlanmagan va kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumlarni kasbga o'qitishda jazoni ijro etish muassasalari va kasbiy ko'nikmalar markazlarining vazifalari va majburiyatlari

7. Jazoni ijro etish muassasalarining vazifa va majburiyatlari:

Jazoni ijro etish muassasasi quyidagi vazifalarga ega:

mahkumlarni kasb-hunarga o'qitish uchun jazoni ijro etish muassasalarida kasb-hunarga o'rgatish xonalarini tashkil etish;

kasb-hunarga o'qitish xonalarini tinglovchilar o'qitilayotgan kasb-hunar yo'nalishlaridan kelib chiqib zarur asbob-uskunalar va o'quv anjomlari bilan jihozlash choralarini ko'rish;

har chorakning oxirgi oyi 15 sanasiga qadar yangi o'quv kursi uchun buyurtmani shakllantirib kasbiy ko'nikmalar markazlariga taqdim etish;

o'quv kursiga jalb etilgan tinglovchilarni muntazam ravishda mashg'ulotlarda ishtirok etishini ta'minlash;

kasb-hunarga o'qitilgan tinglovchilar hisobini yuritish va Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentiga taqdim etib borish.

8. Jazoni ijro etish muassasasi quyidagi majburiyatlarga ega:

qonunchilik hujjatlari, Vazirlikning hujjatlari va topshiriqlarida belgilangan vazifalarni bajarishi;

kasb-hunarga o'qitish xonalarini tinglovchilar o'qitilayotgan kasb-hunar yo'nalishlaridan kelib chiqib zarur asbob-uskunalar va o'quv anjomlari bilan jihozlash choralarni ko'rish;

mashg'ulotda ishtirok etayotgan tinglovchilarni mashg'ulotlar davomida o'qishga vijdonan yondashishlarni va texnika xavfsizlik qoidalari hamda ichki tartib talablariga amal qilishlarini ta'minlash;

o'quv kursiga jalb etilgan kasbiy-ko'nikmalar markazlarining o'qituvchilari va mutaxassislarini o'quv kursi davomida muassasaga xavfsiz kirib chiqishini ta'minlash;

jazoni ijro etish muassasalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

9. Kasbiy ko'nikmalar markazlarining vazifa va majburiyatlari:

Kasbiy ko'nikmalar markazi quyidagi vazifalarga ega:

ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish imkoniyatlari, mahkumlarning qiziqishlari, mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida kasb-hunarga o'qitish bo'yicha beriladigan buyurtmasi asosida jazoni ijro etish muassasalarida o'quv kurslarini tashkil etish;

o'quv kurslariga malakali va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni shartnoma asosida jalb etish;

jazoni ijro etish muassasalarining ishlab chiqarish faoliyati imkoniyatlari, tinglovchilarning qiziqishidan kelib chiqib kelgusidagi o'quv kurslari yo'nalishlari bo'yicha taklif berish;

har bir o'quv kursi uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

o'quv kursi yakuni bo'yicha sinovdan o'tgan tinglovchilarni sertifikat bilan ta'minlash;

kasb-hunarga o'qitilgan tinglovchilar hisobini yuritish hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga taqdim etib borish;

10. Kasbiy ko'nikmalar markazlari majburiyatlari:

qonunchilik hujjatlari, Vazirlikning hujjatlari va topshiriqlarida belgilangan vazifalarni bajarishi;

kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumlarni o'qitishni tashkil etishi hamda kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish borasida hamkorlikda faoliyat olib borishi;

o'qishni muvaffaqiyatli yakunlagan mahkumlarga belgilangan tartibda sertifikat berish;

kasbiy ko'nikmalar markazlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

4-bob. Mahkumlarni kasbga o'qitishni moliyalashtirish

11. Kasb-hunarga o'rgatish xonalarini tashkil etish, kasb-hunar yo'nalishlaridan kelib chiqib zarur asbob-uskunalar va o'quv anjomlari bilan jihozlash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari mablag'lari doirasida moliyalashtiriladi.

12. Mahkumlarni kasb-hunarga o'qitish uchun jalb etilgan kasbiy ko'nikmalar markazlarining ishlab chiqarish ta'lim ustalarini shartnoma asosida o'qitish uchun jalb etilgan mutaxassislariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bilan bog'liq xarajatlar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

Bunda:

kasbiy ko'nikmalar markazlarining ishlab chiqarish ta'lim ustalariga belgilangan tartibda o'tilgan dars soatlari uchun ish haqlari soatbay asosida to'lovlar amalga oshiriladi;

ishlab chiqarish ta'lim ustalari mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha professional ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalariga tenglashtiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

13. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2025-yil _____dagi ____-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

**Mahkumlar kasb-hunarga tayyorlaydigan jazoni ijro etish
muassasalari ro'yxati**

T/r	Jazoni ijro etish koloniyasi nomi	Jazoni ijro etish koloniyasi manzili	Biriktirilgan kasbiy ko'nikmalar markazlari
1.	2-son jazoni ijro etish koloniyasi	Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Shayx ali qo'rg'oni Rudasoy ko'chasi	Qarshi shahri kasbiy ko'nikmalar markazi
2.	10-son jazoni ijro etish koloniyasi	Qashqadaryo viloyati Koson tumani 5-kichik tuman "Paxtazor" MFY	Qarshi shahri kasbiy ko'nikmalar markazi
3.	21-son jazoni ijro etish koloniyasi	Toshkent viloyati, Zangiota tumani "O'rtaovul" QFY, Bog'zor qo'rg'oni Harbiylar ko'chasi	Oqqo'rg'on tumani kasbiy ko'nikmalar markazi
4.	24-son tarbiya koloniyasi	Toshkent viloyati Zangiota tumani, "O'rtaovul" QFY, Bog'zor qo'rg'oni	Oqqo'rg'on tumani kasbiy ko'nikmalar markazi